



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

QURILISH OBYEKTлари VA RESURS SMETA HUJJATLARINING TURLARI

Tajiev Yusupjan Matyakubovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Qurilish kafedrası
katta o'qituvchisi

Asosiy qism

Resurs smeta hujjatlari obyekt narxini, muayyan ketma-ketlikda, ish turlari (xarajatlari) – ishlarning bosqichi – obyekt – topshiriladigan kompleks – qurilish navbati – umuman qurilishdan iborat bo'lgan qurilishning kichik elementlaridan yirikroq elementlariga bosqichma-bosqich o'tgan holda aniqlash imkoniyatini beradi.

Resurs smeta hujjatlarini tuzishga muvofiq alohida qurilaётgan bino (ishlab chiqarish korpusi ёki sex, ombor, vokzal, sabzavot saqlanadidan ombor, turar joy binosi, klub va shu kabilar) ёki inshoot (ko'prik, tunnel, platforma, to'g'on va shu kabilar) va unga tegishli barcha qurilmalar (galareya, estakada va shu kabilar), uskunalar, mebel, inventar, ёrdamchi va qo'shimcha qurilmalar, shuningdek, zarurat bo'lgan holatlarda ёndosh muhandislik tarmoqlari va umummaydon ishlari (vertikal rejalashtirish, obodonlashtirish, ko'kalamlashtirish va shu kabilar) *qurilish ob'ekti* deb qabul qilinadi.

Umumiy texnologik ёki boshqa vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan bino va inshootlar majmuasi (sexlarning bloki, qozonxona va ёqilg'i ombori, bir nechta rezervuar, suv oluvchi, tozalovchi va boshqa inshootlar guruhi) ham qurilish ob'ekti bo'lishi mumkin.

Korxonalar, ishlab chiqarish ёki turar joy-fuqarolik komplekslari qurilishida tashqi tarmoqlar va ularga xizmat ko'rsatuvchi hamda ёrdamchi inshootlar (suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiq lashtirish, gaz lashtirish, elektr energiya ta'minoti va boshqalar), shaxobcha yo'llari, zavod ёki mavze ichidagi yo'llar, boshqa umummaydon ishlari alohida qurilish ob'ektlari hisoblanadi.

Qurilishning ixtisoslashgan turlarining o'ziga xos xususiyatlari ham u èki bu bino va inshootlarni alohida ob'ektlar qatoriga kiritishda hisobga olinadi. Bunday ob'ektlar sirasiga quyidagilar kiradi:

neft va gaz sanoatida – neft èki gaz quvurlari (ekspluatatsiya qilinaètgan va qidiruv quvurlari) va ularga tegishli barcha uskunalar, èrdamchi inshootlar va ishlar;

ko'mir va tog'-kon ruda sanoatida – kavlab borish va kavланаètgan konlar va shaxtalarning boshqa yer osti inshootlarini uskunalar bilan jihozlash ishlari;

melioratsiya va suv xo'jaligida – barcha inshootlari bilan birga kanal èki kanal qismi, barcha inshootlari va ish turlari bilan birga melioratsiya qilinidagigan yer maydonlari;

temir yo'l qurilishida – peregon (ikkita qo'shi stansiya orasidagi masofa) èki alohida punkt chegarasida, aloqa tarmoqlari, SMB (signalizatsiya, markazlashtirish, blokirovka – poezdlar harakatini avtomatik ravishda boshqarishi tizimi), elektr energiya ta'minoti èki kontakt tarmog'ining muayyan qismidagi temir yo'l ko'tarmasi èki yo'lning yuqori qismidagi ko'tarma;

avtomobil yo'li qurilishida – yer polotnosi (ko'tarmasi), yo'l to'shamasi, suv quvurlari va avtomobil yo'li ma'lum qismi chegarasidagi boshqa inshootlar. Chiziqli qurilishda (temir va avtomobil yo'llari, elektr toki va aloqa uzatish liniyalari, magistral quvurlar va hk.) uchastkalarining biri chegarasidagi binolar guruhi (masalan: tirkalgan devorlar, yer ko'chishi va siljishiga qarshi mo'ljallangan inshootlar, peregon chegarasida - suv o'tkazuvchi quvurlar, alohida punkt chegarasida - strelka postlari, texnik ko'rikdan o'tkazish punktlari; ma'lum uchastkada – kuchaytirish punktlari guruhi, aloqa qurilmalari va SMB). Agar loyihaga asosan qurilish maydonchasida èrdamchi va qo'shimcha ob'ektlarsiz faqat bitta asosiy ob'ekt qurilaètgan bo'lsa (masalan: sanoatda – asosiy sex binosi; transportda – temir yo'l vokzalining binosi; turar joy qurilishida – turar joy, teatr, maktab binosi va shu kabilar), u holda ob'ekt tushunchasi qurilish tushunchasi bilan muvofiq bo'lishi mumkin.

Qurilish bahosi, kapital mablag'lar kiritish tuzilmasiga muvofiq, quyidagi ishlar va xarajatlar bo'yicha toifalarga bo'linadi:

- ☐ umumqurilish va maxsus qurilish ishlari;
- ☐ uskunalarni montaj qilish bo'yicha ishlar (montaj ishlari);
- ☐ uskuna, mebel va inventarga qilinadigan xarajatlar;
- ☐ ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar (vaqtinchalik bino va inshootlar, qishki mavsumdagi narxlarning oshishi, vaxta metodi va shu kabilar);
- ☐ buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari.

Qurilish bahosini belgilashda *umumqurilish* va *maxsus ishlar* sirasiga quyidagilar kiradi:

bino va inshootlarni qurish bo'yicha: yer ishlari, yig'ma va monolit temirbeton va beton, g'isht, blok, metall, eg'och va boshqa qurilish konstruksiyalari, pol, tom, pardozlash ishlari;

kon yuzasini ochish, burg'ulash-portlatish, ustun qoziq qoqish, tuproqni mustahkamlash, pastga tushiriluvchi quduqlarni joylashtirish, quduqlarni burg'ulash, qurilish konstruksiyalari va uskunalarini korroziyadan saqlash, issiqlik izolyasiyasi (shu jumladan, qozonlar, sanoat pechlari va boshqa agregatlarni o'ta chidamli qoplama bilan o'rash), tog'-kon kavlash, suv osti-qurilish (g'avvoslik) ishlari;

turar-joy va jamoat binolarini eritish bo'yicha ishlar;

ichki suv quvurlari, kanalizatsiya, isitish quvurlari, gaz ta'minoti, ventilyasiya va havoni sovitish tizimini o'tkazish bo'yicha ishlar (isitish qozonlari, radiatorlar, kalorifer, boyler, nasos va boshqa sanitariya-texnik jihozlar va moslamalar narxini qo'shib hisoblaganda);

ixtisoslashgan qurilishda bajariladigan ishlar, shu jumladan: avtomobil va temir yo'llari; ko'priklar va quvurlar; tonnellar va metropolitenlar; tramvay yo'llari; aerodromlar; elektr toki uzatish tarmoqlari; aloqa, radio va televidenie inshootlari, gidrotexnik inshootlari konstruksiyalari, stapel va sliplarning kema o'tkazuvchi yo'llari; sanoat pechlari va quvurlari; neft va gaz quduqlarini burg'ulash (shu

jumladan, dengiz sharoitida); eroziya, sel, ko‘chki, siljish va boshqa tabiiy ofatlarga qarshi inshootlar; qirg‘oqni mustahkamlash ishlari; melioratsiya ishlari (sug‘orish, quritish, suv keltirish);

suv ta‘minoti, kanalizatsiya, issiqlik va elektr energiya ta‘minotining tashqi tarmoqlari va inshootlarini; gaz-neft mahsulotlari uchun magistral quvurlarni, oqova suvlarni tozalash va atmosfera ifloslanishidan saqlashga mo‘ljallangan inshootlarni qurish bo‘yicha ishlar;

ko‘kalamlashtirish, ixota va ko‘p yillik mevali daraxtlarni o‘tkazish ishlari;

qurilish hududini tayèrlash bo‘yicha ishlar: daraxt va butalarni kesish, to‘nkalarni qo‘porish, maydonni rejalashtirish, tuproqni yuvish va relefni tuzish bo‘yicha boshqa ishlar, qurilmalarni buzish va ko‘chirish va shu kabilar;

zaminlar, poydevorlar va tayanch konstruksiyalarni uskunalar bilan jihozlashga tayèrlash bo‘yicha ishlar; bino va inshootlar qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan geologik va gidrogeologik (shurflash, suvni tortib olish va boshqa), tubni chuqurlashtirish, tog‘-kapital va yuzasini ochish bo‘yicha ishlar;

resurs smeta normalari to‘plamlarida ko‘zda tutilgan boshqa qurilish konstruksiyalari va ishlari, shu jumladan korxona, bino va inshootlar rekonstruksiyasi va ularni qayta texnik jihozlashda bajariluvchi qurilish konstruksiyalarini qismlarga ajratish bo‘yicha ishlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gritsenko A.S. *Ekonomika GSX. Uch.pos. TASI*, 2007.
2. Raximov B.X., Shomirzaev E.A., Kosimova S.T., Gritsenko S.A., Muxibov Yo.U. «Shahar qurilishi va xo‘jaligi iqtisodiyoti» Toshkent TAQI-2010.
3. Gritsenko S.A. «Planirovanie, organizatsiya i upravlenie gorodskogo xozyaystva» Toshkent TAQI-2009.
4. Metodicheskie rekomendatsii po opredeleniyu smetnoy stoimosti stroitelstva predpriyatiy, zdaniy i sooruzeniy v Respublike Uzbekistan. UzshaharsozlikLITI, T., 1996.